

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

SUVONOVA GO'ZAL BAXTIYOR QIZINING

**BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYA VIY ISH YO'NALISHI BO'YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLIH UCHUN «SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA
TARBIYASI HAQIDAGI FIKRLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI»
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dotsent Q. KO'BAYEV

GULISTON – 2016

MUNDARIJA

KIRISH

**I bob. Buyuk mutafakkirlarimizning ijodini o'rgatish
vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning
pedagogik asoslari**

1.1. Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarga
ta'lim-tarbiya berishning maqsad va
vazifalari.....

1.2. Boshlang'ich ta'limda mutafakkirlarimiz ijodini
o'rgatishni takomillashtirish va uning ahamiyati.....

**II bob. Buyuk mutafakkirlarimizning ijodini boshlang'ich
sinf o'quvchilariga o'rgatishning shart-
sharoitlari**.....

2.1. Dars jarayonida buyuk mutafakkirlarimiz ijodini
o'rgatish usullari.....

2.2. Buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatish
bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari
va ularning natijalari.....

Xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilovalar.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonning kelajakdagi ravnaqi bugungi yosh avlodning to'laqonli tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Har bir ota-ona o'z farzandining komil inson bo'lib etishishi uchun qayg'urishi, uni e'tiqodli va ma'rifatli qilib tarbiyalashi lozim.

Ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi maktab va ota-onalar oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlanmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Bu borada Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida (1997 yil 29 avgust) so'zlagan «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi ma'ruzasi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur nutqda Prezident ta'lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyatini aniq tushuntirib beradi: «...bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, yangi mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz, faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin», - dedi va bu vazifalarning hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Tadqiqot maqsadi- buyuk mutafakkirlarimiz ijodi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti – mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berishni shakllantirish jarayoni. **Tadqiqot predmeti** – boshlang’ich sinf o’qish darslarida buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o’rgatishning mazmuni va shakl metodlari.

Tadqiqot vazifalari

1. Boshlang’ich sinf o’qish darslarida mutafakkirlar ijodini o’rgatish pedagogik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash.

2. Mutafakkirlar ijodi yordamida o’quvchilarda ta’lim-tarbiyani shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini ishlab chiqish.

3. Asarlar yordamida o’quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.

4. Asarlar yordamida o’quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishni ta’minlaydigan shakl va metodlar, vositalar tizimini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirish.

5. Didaktik asarlar yordamida o’quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish bo’yicha o’qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident I.A.Karimovning ta’lim-tarbiya haqidagi asarlari va nutqlari, Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar kontseptsiyasi, O’zbekiston davlatining milliy va ma’naviy qadriyatlari haqidagi farmonlari, hukumatimizning umumiy o’rta ta’lim maktablar haqidagi qarorlari, O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari, O’rta Osiyo mutafakkirlarining inson tarbiyasi haqidagi fikrlari, barkamol avlod tarbiyasiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik ta’limotlar, mavzuga tegishli ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari:

- Ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish, pedagogik kuzatuv;
- suhbat, anketa, olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topgan;

- Mutafakkirlarimiz ijodining mohiyati ilmiy asoslab berildi;
- boshlang'ich ta'lim bosqichi 1-4-sinf o'quvchilarida mutafakkirlarimiz ijodini o'rganishning pedagogik shart-sharoitlari, uni o'quv tarbiya jarayonida amalga oshirish uslubiyati ishlab chiqildi;
- ishlab chiqilgan uslubiyatning pedagogik samarasi, tajriba- sinov ishlari sinflarda tekshirib ko'rildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tavsiyalar, o'quvchilar tarbiyasiga oid ilmiy nazariy ma'ruzalar tayyorlashda, didaktik asarlar yordamida o'quvchilarini tarbiyalash ishlarini takomillashtirishda, ish tajribalarini ommalashtirishda, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalardan iborat.

I bob. Buyuk mutafakkirlarimizning ijodini o'rgatish vositasida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning pedagogik asoslari

1.1. Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari

Farzandga ta'lim-tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois oiladagi muhit, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati oilaviy turmush iqlimiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviyatni shakllantirishga zamin bo'ladi. Bola tarbiyasi va boshlang'ich ta'limda jamiyat ma'naviyatining ahamiyati katta. Farzandlarga milliy qadriyatlar, xususan, Sharq mutafakkirlari qoldirgan boy meros asosida ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' mutafakkirlarimiz asarlarida bolalarga go'daklik chog'idanoq kattalarga hurmat va keksalarni e'zozlash, ota-onaga alohida ehtirom ko'rsatish, o'zidan kichiklar izzatini o'rniga qo'yish kabi ajoyib qadriyatlarimizga tayanib ish ko'rishga chaqiriladi. Shu ma'noda ham «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishimiz kerak, sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz...», - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

Bolalarga ilk tarbiya asoslari oilada beriladi. Farzandlarga boshlang'ich ta'lim berishda ta'sirchan kuch – oilaviy tartib, ya'ni ularning o'zaro munosabati, ota-onaning xulq-atvori, ma'naviy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqalardan iborat bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlar qadimda o'tmish mutafakkirlarimiz tomonidan ko'p bora ta'kidlangan va hayotiy hikmatga aylangan.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida bola ta'lim-tarbiyasiga, dunyoqarashining kengayishiga va shaxsi rivojlanishiga oid qimmatli fikrlar ko'plab bayon etilgan. Xalqimizga xos bo'lgan tortinchoqlik, andisha kabi psixologik xususiyatlarni chuqur anglagan ulug' bobomiz insonni faol bo'lishga, bilim egallashga undab, shunday yozadi:

Bilmagannni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Yana bir hikmatida:

Oz-ozdan o'rganib, dono bo'lur,

qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur- deb yozadi.

Hadisi sharifda ham quyidagi ibratomuz fikrlar bayon etilgan: «*Ilm egallang! Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir*», «*Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir*», «*Beshikdan to qabrga kirguncha ilm izlangiz*», «*Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir*». Bu purma'no fikrlar ham bolalarga ta'lim berishda muhim o'rin tutadi.

Xalqimiz farzandlarini doimo tabiatga mehrlilik bo'lish, tevarak-atrof, suv, havo, tuproq, hayvonot nabo'at olamini asrab-avaylash, insonni oliy qadriyat deb bilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish ruhida tarbiyalagan. Bular haqida ham shunday bebaho o'g'it va yo'l-yo'riqlar, umuminsoniy ahamiyatga molik fikrlar bayon etilganki, ular hozirga qadar ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Ulug' mutafakkirlarimiz Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, she'riyat mulkining sulтони Mir Alisher Navoiy bilan bir qatorda diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassamlashtirgan Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan bahramand bo'lish ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

Bola shaxsini rivojlantirish, dunyoqarashini o'stirishda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rni katta. Ularning hayoti, ijodi, axloqiy ta'lim va o'g'itlari yosh avlodni tarbiyalashda meros hisoblanadi. Ular ijodiga xos xususiyat – ilm-ma'rifatni ulug'lash, axloq masalalari, Vatanni sevishtirish, insonparvar bo'lishga undashdan iborat bo'lgan.

Ha, kelajakka ishonchimiz, umidimiz bo'lgan farzandlarning sog'lom, jismoniy baquvvat, ruhiy rivojlangan, bilimdon, barkamol inson bo'lib etishida zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda butun dunyoda umuminsoniy qadriyat sifatida e'zozlanadigan boy ilmiy-badiiy merosimiz asosiy tayanch vazifasini o'taydi. Shu bois ham farzandlarimizga ilk ta'lim berish bosqichida, bola shaxsining to'laqonli shakllanishida zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ajdodlarimiz yaratgan buyuk qadriyatlar uyg'unlashgan holda o'zlashtirilishi zarur.

Komillik mazmunida o'tmishimizning boy ma'naviy merosi, ulug' mutafakkirlarimizning ilg'or ta'limoti, tafakkur durdonalari mujassamlashganki, ular ma'naviy-axloqiy tarbiyada muhim va qimmatli manba hisoblanadi. Chunki, o'tmish ma'naviy-axloqiy tafakkuri ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlar, axloqiy qarashlar bugungi taraqqiyot uchun ham, yosh avlod kamoloti uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Shunga ko'ra biz uchun qadrli bo'lgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilar ma'naviy-axloqiy kamolotini tarbiyalashda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida har jihatdan xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlari hisoblanmish mashhur mutafakkir va mutafakkirlarning ma'naviyatga doir o'gitlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero, ularning asarlarida axloq-odob doimo ulug'langan. Chunki, xulq-odob insonga beqiyos husn va nazokat bag'ishlaydi, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida ma'naviy-axloqiy g'oyalarni tarannum etib, xalqni oriflik, fozillik, komillik darajasiga ko'tarishga chog'langanlar. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi asosiy o'rinda turadi.

Buyuk mutafakkir o'zining butun hayoti va ijodi davomida inson hayotining negizi bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga katta beradi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda vaqtni ham, kuchni ham ayamalikka da'vat etadi. Shoir shu bilan birga inson huquqlarini, uning or-nomusi va qadr-qimmatini ham himoya qildi. U xalqning osoyishta va bunyodkor hayotini buzuvchi yovuzlikka, xalqning xo'rlanishiga va ijtimoiy ofatlar keltiruvchi hodisalarga qarshi chiqadi. Xalqqa zo'ravonlik qilishni yovuzlik deya qoralaydi. Shu sababli, o'sha davrdagi o'zaro urushlar va ijtimoiy falokatlarga qarshi baralla bosh ko'tarib, uning mudhish oqibatlarini jonli misollarda ko'rsatib beradi.

Inson kamolotining fazilatlaridan hisoblangan adolat tushunchasi va tuyg'usi Navoiy donishmandligining asosini, ma'naviy-axloqiy qarashlarining bosh mezonini tashkil etadi. Barchaga barobar adolat ustivor bo'lgan taqdirdagina mamlakat va uning fuqarolari farovonlikka erishishi mumkinligini shoir o'z asarlarida yorqin ifodalaydi.

Mamlakatning osoyishtaligi, obodonchiligi, xalqning nizolarsiz tinch-totuv yashashi, turmushning farovon bo'lishi davlatni oqilona idora qiladigan dono yo'l boshchiga, adolatli shohga bog'liq, deydi Alisher Navoiy. Uning zamondoshi, tarixchi olim Xondamir «Makorimul axloq» asarida:

«Adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi», deya – hazrat Navoiyga yuqori baho beradi.

Buyuk shoir saxovat va himmatni yuksak fazilat qatoriga qo'yadi. Uning fikricha, yaxshilik sari va muhtojlarga karamli bo'lishga intilish har bir axloqli kishiga xosdir. Shoir ana shu xislatga ega bo'lmagan insonni dursiz chig'anoqqa, ko'klam fasli osmonda suzib yurgan yog'insiz bulutga o'xshatadi.

Uning «Hayratul abror» dostonida etuk shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi yaxshilik, saxovat, andisha, adab, kamtarlik, qanoat, rostgo'ylik, insof, adolat, bag'rikenglik singari fazilatlarini ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan. Sharqda inson qadrini g'oyat yuqori darajaga ko'tarish uning buyuk orzusi bo'lgan.

Buyuk mutafakkir o'zining ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida hunar o'rganishga ham katta e'tibor qaratadi.

Hunarli bo'lish xalqparvar, bilimli, olijanob fazilatlar egasi bo'lishga zamin hozirlaydi. Buning uchun tarbiya etakchi rol o'ynamog'i lozim. Shu bilan birga hunar qobiliyatni, iqtidorni rivojlantiradi va bolalarni yomon xulqli bo'lishdan saqlaydi. Shuningdek, Navoiy ma'naviy-axloqiy tarbiya yordamida bolalarga ilm-ma'rifat berib, ularni odobga o'rgatishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Bola shaxsi kamolotida tarbiyaning yuksakligi alohida ta'kidlanadi.

Shoir o'zining «Farhod va Shirin» dostonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning do'stlik, birodarlik, xalqparvarlik, kabi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratdi va buni dostonidagi xitoylik Farhod, Shopur va arman qizi Shirin misolida tasvirlaydi.

Asar qahramonlari o'rtasidagi adabiy do'stlikning asosi ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari vafo, sadoqat, jasorat va mardlik orqali to'ldiriladi.

Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida ilm orqali Farhodning aql-idroki, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli inson darajasiga etganini ko'rsatadi. Dostonni to'liq o'qigan har bir o'quvchi, insonning etukligini ko'rsatuvchi sifatlardan biri – ilm ekaniga to'la ishonch hosil qiladi.

Farhoddagi kamtarlik, boylikka qiziqmaslik, o'zini oddiy kishi deb bilishi, mazlum xalqni chin ko'ngildan hurmat qilishi, umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish kabi fazilatlar har bir o'quvchiga katta ibrat bo'la oladi.

Hazrat Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida komillik muhim o'rin tutadi. Uningcha, komillik buyuk insoniy ne'mat bo'lib, u insonning jahon farzandi mavqeiga ko'tarilishini xohlagan va xuddi shu mavqeni komillikning oliy cho'qqisi deb bilgan.

Buyuk mutafakkir o'z davrida komil insonlarni «ahli ma'ni» deb bilgan. «Ahli ma'ni» bu fikrli odamlardir. Fikrsiz kishining ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash, haqiqatni anglash yoxud mustaqil mushohada yuritish demakdir. «Ahli ma'nilik» tufayli axloqiy ong rivojlanadi, odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi. «Ahli ma'ni»li kishilar guruhiga oqil va dono,

kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoiylarni kiritish mumkin. Shunday fazilatlarga ega bo'lgan insonlarning tafakkur darajasi benihoya kengdir. Hazrat Navoiy deydilarki: «Ahli suratlarga shoh bo'lg'uncha, ma'ni ahli yig'inida gado bo'lmoqligining ming karra afzaldir». Uning fikricha, ahli ma'ni kishilar ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk shaxslardir. Alisher Navoiy yaratgan qahramonlar ham xuddi shunday ma'naviy-axloqiy etuk insonlar sirasiga kiradi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijodida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari mazmunan boy, shaklan rang-barangdir. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida aks etgan mardlik, to'g'rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik, saxiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi xislatlar bugungi kunda kamol topayotgan yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darslarida buyuk mutafakkirlarimizning ijodini, xalqimizning xalq og'zaki ijodini o'rganish bo'yicha 3-sinf o'qish kitobida berilgan bir qancha dars ishlanmalarini tavsiya etamiz:

Mavzu: VATANIMIZNI SEVAMIZ

Dars materiali: Abdulla Avloniyning «Vatanni suymak» va Xurshid Davronning «Vatan mo''tabardir» hikoyalari. Dunyo va O'zbekiston xaritasi.

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: Abdulla Avloniyning «Vatanni suymak» va Xurshid Davronning «Vatan mo''tabardir» asarlarini o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: «Vatanni suymak», «Vatan mo''tabardir» asarlarini o'qish orqali Vatani jonidan ortiq sevish, uni qadrlashni ota-bobolaridan o'rganishga odatlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni o'qilgan asardagi g'oyani anglaydigan qilib shakllantirish. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Darsning borishi:

1. Alibek Rustamiyning «Bayroq nima?» hikoyasini o'qitish, mazmunini so'rash orqali o'tgan dars mavzusi mustahkamlanadi.
2. Yangi mavzu: Abdulla Avloniyning «Vatanni suymak» hikoyasini o'qish.
3. Kirish suhbat. O'qituvchi Abdulla Avloniy haqida ma'lumot beradi.

O'qituvchi uchun:

Abdulla Avloniy

Avloniy O'zbekiston madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedogog, jamoat arbobi, bolalar adabiyotining yuzaga kelishiga katta hissa qo'shgan olim. U 1878-yilda Toshkentda dunyoga kelgan.

Abdulla Avloniy boshlang'ich diniy maktabda o'qidi. Ilm-fanni sevdi. U 14 yoshdan boshlab she'r yozishni mashq qildi. O'z xalqini ilmi qilishni o'zining fuqarolik burchi deb bildi. 1904-yilda Mirobodda maktab ochdi. Maktablar uchun (kitoblar) darslik yozdi. Masalan, «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kitoblari fikrimiz dalilidir.

Abdulla Avloniy shoir, rejissyor, tarjimon, aktyor, jamoatchi o'qituvchi-professor sifatida xalqimiz qalbida saqlanib qoldi.

Abdulla Avloniy 1934-yilda vafot etgan.

«Vatanni suymak» hikoyasi «Bolalarga» to'plamidan olingan. (Iloji bo'lsa, o'qituvchi to'plamidan mavzuni o'qib beradi).

4. Lug'at ustida ishlash:

uyur – biyalar to'dasi;

go'sha – odamlar nazaridan uzoq er, turar joy.

5. Ko'rgazmadan foydalanish: o'qituvchi O'zbekiston xaritasidan Arabistonning qaerga joylashganini ko'rsatadi.

6. Hikoya bilan tanishtirish. O'quvchilarga matni ichda o'qish topshiriladi. Topshiriq bajarilgach, hikoya o'quvchilarga navbati bilan ifodali o'qitiladi va so'zlatiladi. Matni o'qish jarayonida ko'chma yozuv taxtasiga yozilgan

hayvonlar, turkistonliklar, arablar soʻzlariga oʻquvchilar diqqati tortiladi. Soʻzlash davomida shu soʻzlardan foydalanish uqtiriladi.

7. Oʻquvchilarning hikoya yuzasidan qay darajada tushunchaga ega boʻlganliklarini aniqlash maqsadida quyidagi savollar asosida suhbat oʻtkaziladi:

- Matnda hayvonlar haqida nimalar deyilgan?
- Arablar haqida-chi?
- Nima uchun har kim oʻz Vatanini jonidan ortiq sevadi?

8. Maqol ustida ishlash.

quyidagi maqol mazmunini ochib bering: «Oʻzga yurtda sulton boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl».

Agar oʻquvchilar maqol mazmunini ochishga qiynalsalar, u holda oʻqituvchi yordam beradi. Yaʼni: Sulton deganda yurt podshosi tushuniladi. Podsho oʻziga-oʻzi xoʻjayin. Uning buyruqlarini hamma bajaradi. Xalq unga boʻysunadi. Lekin Sulton oʻz yurtini tashlab ketib, boshqa yurtda sulton boʻlsa ham, koʻnglining bir chetida armon boʻladi. Bu armon tugʻilib oʻsgan yurtidan uzoqdaligidan, xalqidan ajralganidan afsuslanib yashashdir.

Choʻpon-chi? Choʻpon birovlarining molini boqib kun koʻradi. Lekin oʻz yurtida, oʻz tugʻilgan joyida shod-xurram yashaydi. Choʻpon oʻzini baxtli hisoblaydi. Shundan «Oʻzga yurtda sulton boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl» maqoli mavjud.

Shu oʻrinda shoh Boburning Hindistonda podshoh boʻlib yashasa ham, oʻz yurti Andijonni sogʻinib yashagani, Andijonga kelolmay armon bilan olamdan oʻtgani eslatiladi. Sheʼriy parcha oʻqiladi. Bu orqali oʻquvchilar qalbida Vatanni sevish, unga muhabbat qoʻyish, undan kechmaslik tuygʻusini singdirish uchun yoʻl ochib boriladi.

9. Oʻquvchilar matn mazmunini puxta oʻzlashtirib olishlari uchun mavzu mustahkamlanadi.

10. Oʻqituvchi oʻquvchilarga :

1. «Nima uchun Vatan mo''tabar?» 2. «Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi?» kabi savollarga javobni Xurshid Davronning «Vatan mo''tabardir» hikoyasidan topilajagini aytadi. Hikoyani ichda o'qish topshiriladi.

11. Topshiriq bajarilgach, o'quvchilarga hikoya mazmunini qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat uchun savollar va topshiriqlar:

- Mo''tabar so'zi qanday ma'noni bildiradi?
- Nega inson uchun vatan mo''tabar?
- Vatan qaerdan boshlanadi?
- Biz vatanni sevishni kimlardan o'rganmog'imiz kerak? Javobingizni hikoyadan o'qib isbotlang.

O'qituvchi o'quvchilar javobini to'ldiradi va «Mehrigiyo» so'ziga izoh beradi. «Mehrigiyo» - o'simlik. U xushbo'y, yoqimli hid taratadi. Shuning uchun ham shu gulni sevadi, qadrlaydi. Muallif vatanni ana shu Mehrigiyoga o'xshatgan.

12. O'qituvchi mavzuni mustahkamlash uchun savollarga javob olib, lozim bo'lsa to'ldiradi.

- Muallifning fikriga qanday qaraysiz?
- Nima uchun Ona vatan deyiladi?

13. Darsni yakunlash uchun savollar:

- Bugungi darsda qanday asarlar o'qidik?
- Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?

14. Uyga vazifa: «Vatanni suymak», «Vatan mo''tabardir» hikoyalarini o'qib matnga taalluqli savol va topshiriqlarga javob topish, «Vatanimizni sevamiz» mavzuida insho yozishga tayyorlanish.

XALQ OG'ZAKI IJODI

Xalq og'zaki ijodi xalqning turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan. U mehnat jarayoni bilan bog'liq. Xalq shu mehnat jarayonining turli sharoitlariga mos ravishda bolalar uchun ertak, qo'shiq, topishmoq, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib o'qiydilar.

Xalq og'zaki ijodida, ya'ni ertakda yaxshilik yomonlik ustidan, to'g'rilik egrilik ustidan g'alaba qiladi. Mehnatkash xalqning turli orzu-istaklari hikoya qilinadi.

Qo'shiq turli davrdagi hayotga va marosimlariga mos ravishda yaratiladi. Qo'shiqlarda xalqning orzu-istaklari o'z aksini topdi. Masalan, "Yor-yor", "Chittigul", "Laylak keldi".

Qo'shiq o'quvchilarning nafosatini o'stirib ularni hayotga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalaydi.

O'quvchilarda ifodali o'qish va ifodali nutq malakalarini hosil qilishda va uni takomillashtirishda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol va topishmoqlardan ham foydalaniladi.

Topishmoqlar ustida ishlash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, zehni o'stirdi, lug'at boyligini o'stiradi, ifodali o'qishga o'rgatadi.

Maqollar xalq tomonidan yaratilgan ixcham va timsolli, chuqur ma'noli gaplardan iborat. O'quvchilarga rostgo'ylik, do'stlik, mehribonlik, mehnatsevarlik, to'g'rilik kabi fazilatlarni singdirishda maqollar muhim ahamiyatga ega. Ularda eng yaxshi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. O'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga yordam beradi.

Maqollar va topishmoqlarni o'rganishga alohida soat ajratilmaydi. Darslarda maqollardan o'rganilayotgan badiiy mazmuniga boglab, matn yuzasidan xulosalar chiqarishda, mustaqil ishlashda foydalaniladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning sevib, qiziqib o'qiydigan asarlari ertaklardir. Ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarni bolalar zo'r qiziqish bilan o'qiydilar. Ertakdagi mard, kuchli, dovyurak qahramonlar, yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi bolalarni o'ziga tortadi. Timsollarning hatti-harakatlariga qarab ertaklardan foydalaniladi.

Masallarni o'rganish o'quvchilarga ahloqiy ta'lim berishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. «Masal, axloqiy mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko'proq she'riy yo'lda yoziladi.

Masalda insonlarga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan hissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi».

Mavzu: qO'ShIq - XALq OG'ZAKI IJODI

Dars materiali: Darslikning 29-betidagi xalq qo'shiqlari.

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: «qo'shiq» (29-betidagi)ni o'qish. qo'shiqning turli mazmunda bo'lishini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning san'atga, Musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning turli janrdagi asarlarni o'qish malakalarini shakllantirish va o'quvchilar nutqini o'stirish.

Darsning borishi: Dars 3- sinf «O'qish kitobi»ning 29-betida berilgan rasm yuzasidan suhbat o'tkazishdan boshlanadi. Buning uchun avval o'quvchilar rasmni kuzatadilar. Nimalar tasvirlanganligini aniqlaydilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi:

- Rasmda nimalar tasvirlangan?

(Javob:- Rasmda doston kuylovchi baxshi, humo qushi, ertaklarda uchraydigan tulporlar tasvirlangan).

So'ngra o'quvchilardan bilgan qo'shiqlarini aytish so'raladi. Masalan, «Chitti gul»ni aytadilar:

Chitti guley, chitti gul,

Etagingga gul bosdim.

Hayu chitti gul,

Hayu chitti gul.

qo'ling gulbogda bo'lsin,

Beling belbog'da bo'lsin.

Hayu chitti gul,

Hayu chitti gul.

So'ng o'qituvchi muallifi yozilgan va muallifi yozilmagan qo'shiqlarga o'quvchilar diqqatini qaratadi. Muallifi bor qo'shiq bir kishi tomonidan yozilgan bo'ladi. Muallifi yo'q qo'shiq xalq tomonidan yaratilgan. So'ng xalq tomonidan yaratilgan qo'shiq va ertaklar xalq ogzaki ijodi hisoblanishi tushuntiriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi darslikdagi birinchi qo'shiqni o'quvchilarga o'qitadi yoki yod olgan o'quvchi bo'lsa, kuyga solib aytiladi. O'qituvchi o'quvchilardan qo'shiq qaysi mavsumga mosligi unda nimalar kuylanganligi so'raydi va ular javobini to'ldiradi.

O'quvchilarga qo'shiqning ikkinchisi ya'ni «Xey, lola» ichida o'qish topshiriladi. To'xtamlarga rioya qilish, ohangini linqlash, ifodali o'qishga tayyorlanish aytiladi. So'ng bir necha o'quvchiga ifodali o'qitiladi. Har bir satr tahlil qilinadi, mazmuni haqida o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar fikri o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. qo'shiqda yurt tinch bo'lishi, odamlar osoyishta hayot kechirishi, xalqning orzu-umidlari kuylanadi.

Chunki, xalqimiz o'tmishida amirlar, beklar, xonlar va xorijiy davlatlar tomonidan jabr-zulm tortgan, azob-uqubatda yashagan. Shuning uchun ham o'tmishda xalq o'z hayotida noroziligini ifodalab qo'shiqlar yaratgan.

Hozirgi vaqtda yaratilgan qo'shiqlarning mazmuni o'zgargan.

Masalan, «Ona bitta- Vatan yagona» bo'lishida kimning qaysi qo'shig'ini o'rgangan Edik? (Anvar Obidjonning «O'ktam avlod» va Kavsar Turdievaning «Dunyoni saqlar bolalar» qo'shigini o'rgangan edik).

Uyga vazifa: Darslikning 29-betidagi qo'shiqni o'qish va yod olish.

Mavzu: MARD – MAYDONDA SINALAR

(birinchi dars)

Mavzu hajmi katta va yangi janr bo'lganligi uchun 2 soat o'rganiladi.

Dars materiali: «Rustamxon» dostonidan olingan parcha. Ergash Jumanbulbul o'g'lining rasmi, «Rustamxon» dostoni (Kitob).

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: Ergash Jumanbulbulning «Rustamxon» dostonidan olingan parchani o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: Ergash Jumanbulbulning «Rustamxon» dostonini o'qish orqali mardlik, jasurlik fazilatlarini o'quvchilar qalbiga singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda doston o'qish texnikasi va uning mazmunini hikoya qilib berish mahoratini tarkib toptirish.

Dars metodi: tushuntirish, hikoya, suhbat, ko'rgazmali mustaqil ish, aqliy hujum.

Darsning borishi:

1. O'tgan darsda o'tilgan «Donishmand yigit» ertagi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish (35-betdagi), savol va topshiriqlarga javob olish bilan baholash hamda mavzuni takrorlash.

O'qituvchi o'quvchilardan xalq og'zaki ijodiga doir qanday asarlarini o'qiganligini so'raydi. Tegishli javob oladi. Dostonlar ham xalq og'zaki ijodi haqida hisoblanishi gapirib yangi mavzuga bog'laydi.

2. Yangi mavzu: «Rustamxon» dostonini o'qish.

3. Asarni o'qishga tayyorlash.

O'qituvchi uchun:

Ergash Jumanbulbul o'g'li

«Rustamxon» dostonini Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan. Ergashning ota – bobolari baxshi bo'lganlar. Ular ham doston termalarini kuylaganlar.

Ergash shoirning otasi Juman baxshi juda chiroyli va yoqimli kuylagan. Shuning uchun el orasida Jumanbulbul deb nom olgan. Ergash 100 dan ortiq dostonni yod bilgan. Uning boshqa baxshilardan farqi bor. Farqi shuki, u maktab, madrasada o'qigan, atroflicha bilim olgan. Shoir dostonlarni kuylashdan tashqari o'zi ham ijod qilgan.

Ergash shoirning mehr bilan sevib yod aytgan va yozgan asarlaridan biri «Rustamxon» dostonidir.

4. Yangi mavzu: «Rustamxon» dostoni bilan tanishtirish. O'qituvchi darslikdagi dostonidan olingan parchadan «...Rustam ov ovlab kelar, onasi kuydirib - pishirar» (36-bet)gacha o'qib beradi.

5. Lug'at ustida ishlash:

suyukli rafiqasi – sevikli, yaxshi ko'rgan xotini;

g'ashlik qila boshlabdi – ko'ra olmadi;

arznoma- iltimosnoma, ariza.

O'quvchilar ma'nosi qiyin so'z va so'z birikmalari bilan, izohi bilan daftarga yozib oladilar.

6. Dostonni o'quvchilarga qayta o'qitish.

O'qituvchi o'quvchilarga dostonni ichda o'qib, mazmunini va ishtrok etuvchilar nomini eslab qolish vazifasini beradi.

7. O'qilganlar yuzasidan o'quvchilarning tushunchalarini hisobga olish.

Aqliy hujum o'tkazish uchun savol va topshiriqlar:

- dostondagi qaysi davr va qaerdagi voqea tasvirlangan.

- dostonda kimlar ishtrok etdi? (Javob: Sul-tonxon, Huroyim, Kundoshlar, Momogul, maston). O'qituvchi esa yozuv taxtasiga bu nomlarni yozib boradi.

- Nima uchun Oq tosh mamlakatida Huroyim podsholik qila boshladi?

- Momogul kim? U nima ish qiladi?

- Sul-tonxon qanday mazmunda farmon berdi?

- Farmon bajarildimi? Nima uchun?

- Ona – bola qaerda yashay boshladilar?

8. Dostonni turli topshiriqlar bilan qayta o'qish:

O'qituvchi o'quvchilarga dostonidan o'qib o'rganilgan bo'limga sarlavha topishni buyuradi. O'quvchilar o'qituvchi hamkorligida sarlavha topadilar. Topilgan sarlavhalardan ma'quli, sinf yozuv taxtasiga yoziladi («Sul-tonxon safarda»). Topshiriq bajarilgach, o'qituvchi o'quvchilarga: «Sul-ton safarda» bo'limini navbat bilan ifodali o'qib, uni mazmunli qismlarga ajratish, reja tuzish

vazifasini beradi. Buning uchun yozuv taxtadagi savollarga javob bo'ladigan o'rinlarni aniqlash topshirig'i beriladi.

- Nima sababdan Huroyim podsho bo'ldi?
- Kundoshlar va Momogul maston qanday hiyla ishlatdi?
- Nima uchun Huroyimni dor ostiga olib keldilar?

So'ng aniqlangan qismlarga o'quvchilar bilan hamkorlikda sarlavha topiladi. Aytilgan sarlavhalardan mosini o'qituvchi yozuv taxtasiga yozib boradi.

- Keyingi («...Sultonxondan ziyoda ish yurita boshladi») qismiga qanday sarlavha qo'yish mumkin? («Huroyim podsho bo'ldi»).

- «Kundan kun oydan oy o'tib...» dan to «Sultonxon tomon» gacha bo'lgan ikkinchi qismga sarlavha topdingiz? («Momogulning hiylasi»).

- «Sulton xatni o'qib...»dan «...Haydab boribdilar» gacha bo'lgan uchinchi qismga qanday sarlavha qo'ydingiz? («Sultonxon farmon berdi»).

- «Onasi haqidagi xabar...» dan «...onasi kuydirib pishirardi» gacha bo'lgan to'rtinchi qismga qanday sarlavha qo'yildi? («Bahra tog'ida»).

Natijada quyidagicha reja hosil bo'ladi:

Reja:

1. Huroyim podsho bo'ldi.
2. Momogulning hiylasi.
3. Sultonxon farmon berdi.
4. Bahra tog'ida.

9. Reja asosida qayta hikoyalatish.

10. Darsda o'rganilganlarni mustahkamlash uchun savollar :

- Sizga dostonidagi qaysi timsollar yoqdi? Nima uchun?
- qaysi biri yoqmadi? Nima uchun?
- Sultonxonga qilgan ishlariga qarab qanday baho berasiz?

11. Mavzuga mos maqollar ishlash.

Matnda «Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi» maqolini topib o'qish va tahlil qilish. Shuningdek o'quvchilar mavzuga mos aytilgan maqollar ham aytiladi va darsga yakun yasaladi.

12. Uyga vazifa: «Rustamxon» dostonini o'qish, mazmunini so'zlashga tayyorlanish, o'qiganlari yuzasidan savollar tuzish.

Mavzu: MARD MAYDONDA SINALAR

(Ikkinchi dars)

Dars materiali: «Rustamxon» dostonidan olingan parcha. O'TV.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: «Rustamxon» dostonidan olingan parchaning davomini o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: Dostondagi Rustam timsolida insonparvarlik, mardlik, jasurlik kabi fazilatlarni yoshlar qalbiga singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Dostonni o'qish va hikoch qilishga o'rgatish. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars metodi: tushuntirish, suhbat, ko'rgazmali O'TV, aqliy hujum.

Darsning borishi:

1. O'tilgan mavzu «Rustamxon» dostonidan olingan va «Sultonxon ovda» deb nomlangan parchadan tanlab o'qish, mazmunini aqliy hujum asosida so'rash va o'quvchilarni bilimini baholash.

Aqliy hujum:

1. «Rustamxon» dostonini kim yozgan?
2. Dostonda kimlar qatnashadi?
3. Dostonda qaerdagi voqea aks etgan?
4. Sultonxon qaerga jo'nadi? Nima uchun?
5. Sultonxonning o'rniga kim podsho bo'ldi?
6. Huroyimni kimlar ko'ra olmadi? Ular nima qildi?

7. Maston qanday hiyla ishlatdi?
8. Sultonxon farmonda nima degan?
9. Onani o'limdan kim qutqardi? Rustam kim?

«Sultonxon ovda» bo'limidan tanlab o'qitish:

- Sultonxonning safarga jo'nash oldidan aytgan gaplarini o'qib bering.
- Kundoshlarning Mastonga aytgan gapini o'qing.
- Jallodlarning qilgan ishlari tasvirlangan o'rinni o'qib bering.

2. Yangi mavzu: «Rustamxon» dostonini «Kundan kun, oydan oy o'tibdi...» dan boshlab o'qish.

3. O'quvchilarni dostonni o'qishga tayyorlash.

O'qituvchi: dostonni «Kundan kun, oydan oy o'tibdi» dan boshlangan o'rnini magnit tasmasidan eshittiradi. O'quvchilardan hikoya qilib berilgan o'rinlar va she'riy lavhalarning o'qilishiga diqqat qilish talab etiladi.

4. Lug'at ustida ishlash. quyidagi so'z va so'z birikmalarini izohi bilan o'quvchilar daftarlariga yozib oladilar:

qir – baland tekislik, er, dasht;

beldor-beli yo'g'on, beli baquvvat, kuchli, yassi tepalik ma'nosida;

izidan burilmaydi –orqasiga qaytmaydi;

bo'sag'a – ostona.

5. O'qituvchi o'quvchilarga dostondan olingan parchaning «kundan kun, oydan oy o'tibdi» bo'limiga sarlavha topish vazifasini beradi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida sarlavha topadilar. Ma'quli sinf taxtasiga yoziladi. («Rustamxon o'tovga duch keldi»).

6. Badiiy ifodalar ustida ishlash. Savollar: «...Har kim husnini ko'rsa aqli ketib qolguday» jumlasini qanday tushundingiz: (Javob: - yuzi haddan tashqari chiroyli ekan, uni ko'rgan odam aqli hushini yo'qotib o'zidan ketib qolar ekan. Bu gapda qiz yuzining chiroyli ekanligi oshirib tasvirlangan. Bu bilan Ergash shoir qizning juda ham chiroyi ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan).

7. qayta o'qish dostonning «Rustamxon o'tovga duch keldi» bo'limini rollarga bo'lib o'qish uchun tayyorlanish.

8. Doston yuzasidan o'quvchilar tushunchasini quyidagi savol-javob orqali hisobga olish:

- Nima uchun Rustam o'tovga duch keldi?
- Rustam nimadan hayron bo'lib qoldi?
- «Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi», degan gapni kim aytdi?

9. Kitobning 38-betidagi rasm ustida ishlash. O'qituvchi o'quvchilardan quyidagi topshiriqlarga javob oladi:

- Rasmni kuzating, ko'rganlaringizni eslab qoling.
- Rustamning ajdaho bilan olishuv tasvirini so'zlang.
- Sizning ko'z oldingizda Rustam qanday gavdalandi? Ayting.

10. Reja asosida qayta hikoyalatish. O'qituvchi quyidagi rejani yozuv taxtasiga yozadi:

Reja:

1. Xuroyim podsho bo'ldi.
2. Momogulning hiylasi.
3. Sultonxon farmon berdi.
4. Bahra tog'ida.
5. Rustam o'tovga duch keldi.
6. Ajdar bilan olishuv.

11. Mavzuni mustahkamlash:

...Ajdahodan sira mendan kam dema...

Nasib etsa, ot o'ynatib borarman,

Ajdahoni necha bo'lak qilarman.

satrlarida Rustamning qanday fazilatlar aks ettirilgan? – O'ylang, siz Rustamning ko'rinish va hatti-harakatlariga qarab qanday baho berasiz? (O'quvchilardan: - Rustamning mard, jasur, qo'rqmas, insonparvar, mehribondir. U faqat o'z hayotini

o'ylamaydi, balki boshqalarning ham hayotini o'ylaydi, - degan baho berishlari kutiladi).

- Rustamxon sizga yoqdimi? Nima uchun? – savollarga javob olib mavzu mustahkamlanadi.

12. – Dostonni o'qib qanday xulosaga keldingiz? – savoliga javob olish bilan dars yakunlanadi.

13. Uyga vazifa: Dostonni o'qish yaxlit hikoyalashga o'rgatish va mavzuga oid (mardlik, insonparvarlik haqida) maqollar bilib kelish.

Mavzu: XUSHMUOMALA BO'LING

Dars materiali: «Chumoli va tipratikon» masali, xatjildlar.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: «Chumoli va tipratikon» masalini o'qish. O'qish darslari orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Darsda o'quvchilarni faollashtirish. Boshlovchi rolida bo'lishga, ularni barkamol shaxs sifatida voyaga etishga ko'maklashtirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni xushmuomalalikka, o'zgalarni hurmatlashga o'rgatish va halollik ruhida tarbiyalash. Ularda nutq madaniyatini shakllantirish hamda uni hayotga qo'llay olishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Yaxshi o'qish sifat malakalarini rivojlantirish.

Dars metodi: Guruhlar bilan ishlash.

Darsning borishi: Kerakli asos yaratiladi. «Chumoli va tipratikon» mavzui bo'yicha o'quvchilar mustaqil tayyorlanishi uchun olindan ularga qiziqarli va muammoli savollar beriladi. Tarqatma materiallar va mavzuga oid material hamda sinf stol-stullari, guruhlar qulay joylashishi uchun tayyorlab olinadi.

Savollar:

1. Masal mazmunini so'zlab bering.
2. Masalda ishtrok etuvchilarni ayting.

3. Tipratikon va uning bolalariga qanday baho berasiz?
4. Chumoli tipratikondan nima uchun ruxsat so'radi?
5. Chumoliga qanday baho berasiz?
6. Tipratikon bolalari chumolining orqasidan nima deb kulishdi? Ular to'g'ri ish qildimi?
7. Masaldagi maqolni yod ayting. Maqol mazmunini tushuntirib bering.
8. «Badnafs» so'zini qanday tushundingiz?
9. Tipratikon nima uchun qo'rqib-pisib iniga jo'nadi?
10. Chumoli orqasiga qarab tipratikon va uning bolalariga nima dedi?
11. Masaldagi qaysi timsol sizga yoqdi?
12. Masal mazmuniga mos maqol ayting.

Guruhlarga bo'linish. O'quvchilarni 10 kishidan jamlab uch guruhga bo'lish mumkin. (Buni o'quvchilarning jami sonini hisobga olgan holda sinf imkoniyatiga qarab ajratiladi).

Sinf o'quvchilarini ranjitmaslik maqsadida ularni estetik did nuqtai nazaridan kelishmovchiliksiz guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagi shilarni amalga oshiradi. Masalan, o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning jami sonini hisobga olib, oldidan uch hil rangdagi qog'ozlardan har xil shakldagi kichkina hajmli rasmlar, ya'ni qizil olma, sariq jo'ja, ko'k g'oz kabilarni tayyorlab qo'yadi. Tayorlangan uch xil rasmlar o'quvchilarga tarqatiladi.

Bunda har bir o'quvchiga ixtiyoriy ravishda o'zi xohlagan rangdagi kesma rasmlardan birini tanlab olish huquqi beriladi. O'quvchilar tanlab olgan rangli kesma rasmlar orqali o'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga ajratadi.

qizil olma rasmi – 1 guruh;

sariq jo'ja rasmi – 2 guruh;

ko'k g'oz rasmi – 3 guruh .

O'qituvchi mavzu bo'yicha o'quvchilarga qisqa mazmunli yo'llanma-ko'rsatma beradi.

O'qituvchi bugungi o'qish darsining har doimgidan boshqacharoq tarzda o'tishi ya'ni o'quvchilarning mustaqil fikrlay olish qobiliyatini mustaqil ravishda yangi mavzuni o'qib, o'rtoqlariga qay darajada tushuntirib bera olishini tekshirishni tushuntiradi. Har bir guruh o'ziga joyga o'tiradi va o'z sardor, kotiblarini belgilab beradi. Sardorlar guruhni boshqarishi, kotiblar esa guruh a'zolarining fikrlarini hisobga olib borishi tushuntiriladi. Shu tarzda o'qituvchi o'quvchilarga darsning maqsadini tushuntirib beradi. Keyin har bir guruhga xatjildlar tarqatiladi. Ularga «Chumoli va tipratikon» masali yuzasidan tuzilgan savollar joylashtirilgan (Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lganligi uchun guruh fikrini o'qituvchi hisobga oladi).

Guruh sardorlari tarqatma savollarni tanlab olishi va savollarga belgilangan muddatda javob berishlari tushuntiriladi.

Xatjilddagi savollar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-xatjild

1. Masal mazmunini qisqa so'zlab bering.
2. Tipratikon bolalari chumoliga qarata nima dedi? Siz chumoliga nisbatan shu so'zni ishlatarmidingiz? Nima uchun?

2- xatjild

1. Masalda nima haqida gap boradi?
2. «Badnafs» so'zini qanday tushundingiz? Uning o'rnida yana qanday so'z ishlatish mumkin?

3-xatjild

1. Masalda ishtrok etuvchilarni ayting. Hayotda shunday odamlar bormi?
2. Masaldagi maqolni yod ayting va mazmunini tushuntiring.

4-xatjild

1. Masaldagi qaysi timsol sizga yoqdi? Nima uchun?
2. Maqoldagi «jonsarak», «sheryurak» so'zlarinig o'rnida yana qanday so'z ishlatish mumkin?

5-xatjild

1. Tipratikon nima uchun qo'rqib-pisib iniga jo'nadi?
2. Chumoliga qanday baqo berasiz? Tipratikon va uning bolalariga-chi?

6-xatjild

1. Chumoli orqasiga qarab tipratikon va uning bolalariga nima dedi?
2. Masal mazmuniga mos maqol ayting.

Tarqatilgan savollar bo'yicha har bir guruh a'zolari bir-biri bilan fikr almashadi hamda bahs-munozara orqali javoblar tayyorlaydilar. Bunda har bir guruhda saylangan kotib guruh qatnashchilari tomonidan aytilgan javoblarni yozadi. Sardorlar esa guruh ishini jonlantiradi.

Fikr almashuv va bahs-munozara uchun ajratilgan vaqt o'z poyoniga etgandan so'ng, har bir guruh sardori va a'zolari navbatma-navbat berilgan savollar yuzasidan so'zga chiqadi. Boshqa guruhlar tomonidan berilgan qo'shimcha savollarga javob berishadi (albatta guruh a'zolari bilan birgalikda).

Darsni mustahkamlash va yakunlash.

O'qituvchi to'g'rilik, halollik, mehnatsevarlik, kishilarni qo'pol so'zlar bilan ranjitmaslik lozimligi haqidagi fikrlar bilan mavzuni mustahkamlaydi va darsga yakun yasaydi.

Har bir guruh a'zolari berilgan vazifani yoritib berganliklari va savollarga aniq, to'g'ri javob berganliklari muhokama qilinadi va lozim bo'lsa o'quvchilar fikri o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. Har bir o'quvchi dars jarayonida qatnashish darajasiga qarab baholanadi. G'olib guruh a'zolari taqdirlanadi.

Uyga vazifa: Masaldagi maqolani yod olish, «halol», «sheryurak», «jonsarak», «badnafs» so'zlarini daftarlariga yozish, imlosini o'rganib kelish topshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek mutafakkirlarining fozil shaxs, komil inson haqidagi fikrlari, axloq-odob haqidagi g'oyalari yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda qimmatli dasturilamaldir. Modomiki, shunday ekan, ulardan ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda hamda yoshlarni tarbiyalashda ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimini isloh etishning asosiy vazifalaridan biridir.

Umumiy o'rta ta'limning quyi bosqichi hisoblangan boshlang'ich ta'lim jarayonida ham umummadaniy va axloqiy ko'nikmalar shakllantirishi lozimligi davlat ta'lim standartlarida alohida qayd etilgan bo'lib, yosh avlod qalbiga odob-axloq me'yorlarini singdirish boshqa fanlar bilan bir qatorda asosan «O'qish» o'quv fanini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. «O'qish» darslari o'quvchilarni xalqimizning unitilayozgan boy tarixi, madaniy merosi hamda qadriyatlari bilan chuqurroq va atroflicha tanishtirish imkonini beradi. Va bu borada buyuk mutafakkirlar o'gitlaridan keng foydalanish lozimligi mazkur o'quv fani dasturi vazifalarida alohida ta'kidlanadi.

Shu maqsadni ko'zlab, biz quyida «O'qish» darslarida ba'zi mavzularni yanada kengroq yoritish imkoniyatlari borligini hisobga olgan holda mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asaridan foydalanishni o'qituvchilarimizga tavsiya qilamiz.

Avvalo, Husayn Voiz Koshifiy haqidagi ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz Koshifiy XV asr mutafakkirlaridan biri bo'lib, u taxminan 1440 yillarda Xurosonning Sabzavor viloyatidagi Bayhaq tumanida tavallud topgan. 1470 yillarda Abdurahmon Jomiyning tavsiyasi bilan Hirot shahriga keladi va bu erda Alisher Navoiy bilan do'stona ijodiy hamkorlikda bo'ladi. Koshifiy falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, dinshunoslikka doir ko'plab asarlar yaratgan. Uning «Lubbi lubobi Masnaviy»,

«Mahbub ul-zuhal», «Badoe ul-afkor fi sanoe-ul-ash'or», «Tafsiri Husayniy», «Javohirot tavsir» kabi asarlari bunga yorqin misoldir. Koshifiy pedagogikaga oid fikrlarini «Axloqi Muhsiniy», «Anvoi Suxayliy», «Risolai Xotamiya», «Futuvvatnoma Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarlarida ifodalagan. Uning arab, urdu tillarida yozgan bu benazir merosi G'arb va Sharq mamlakatlarida ham sevib o'qiladi. Voiz Koshifiy notiq, olim, adib, mudarris, mohir xattot sifatida ham shuhrat qozondi. U 1505 yilda Hirot shahrida vafot etdi. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» nomli asarida insoniy axloq-odob qoidalari batafsil bayon qilingan bo'lib, bu bebaho merosimizni yosh avlod ma'naviyati tarbiyasida ta'lim jarayonida qo'llash katta ahamiyatga egadir.

1.2. Boshlang'ich ta'limda mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatishni takomillashtirish va uning ahamiyati

Vatan shunday muqaddas go'shaki, inson uning rivoji uchun qo'ldan kelgancha hissa qo'shishi, uning himoyasi uchun, kerak bo'lsa, jonini fido qilishi lozimdir.

Bizning go'zal O'zbekistonimiz, jannatmakon diyorumiz, bizga berilgan eng buyuk ne'mat bo'lish bilan birga buyuk omonat hamdir. Biz uni avaylab-asrashimiz, bu ulug' ne'matning qadriga etishimiz va uni har xil g'arazli kishilarning fitna-buzg'unchiligidan himoya qilishimiz lozim bo'ladi.

Mafkuraviy poligonlar, yod ta'sirlar mavjudligi yoshlarimizdan sog'lom e'tiqodni tarbiyalash masalasiga maxsus pedagogik muammo sifatida astoydil kirishish zaruratini kun tartibiga qo'ydi.

Islom ta'limoti, xususan, qur'oni Karimda ham ota-ona, farzandlik burchi, insonning o'z oilasi, uyi, mahallasi, tug'ilib-o'sgan yurtiga mehr qo'yishi, Vataniga muhabbat yuksak insoniy fazilatlaridan ekani, o'zida bunday jihatlarni mujassam qilgan kishidan hech qachon hoin chiqmasligi ko'p zikr etilgan. Hech bo'lmaganda, «Vatanni sevmoq iymondandir» deyilgan hikmatni esga olish kifoya. Undan Vataniga mehri, muhabbati yo'q kishida Allohga bo'lgan mehr ham nuqsonli bo'ladi, degan ma'noni anglash mumkin. Vatanni sevish insonga xos tabiiy tuyg'u bo'lgani uchun Islom dini uni imonning bir bo'lagi deb qaraydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining hijratda bo'lgan damlarida aziz va muqaddas diyorini eslab ko'plab she'rlar yozgan.

*Ko'pdin beriki yoru diyorum yo'qdir,
Bir lahzavu bir nafas qarorim yo'qdir,
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdir.*

Bu ham, albatta, har bir insonning qalbida Vataniga, tug'ilib o'sgan diyoriga muhabbatli bo'lishi tabiiy ekaniga, bu buyuk ne'matning qadrini, ayniqsa, undan ayrilganlar yaxshi tushunishini bildiradi.

«Bir siqim ona yurt tuprog'ining qanchalar muqaddasligini, Vatanidan ayro yashamoq qanchalar og'ir ekanligini biz o'z ona yurtidan ayrilgan muhojirzodalar yaxshi bilamiz, - deb yozadi «Vatan qadriga eting» nomli dil izhorida vatandoshimiz Said Abdurahmon. – O'zga yurtlarda sarson yurishimizda, shul g'urbatga sabab bo'lgan qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimiz holini ham yaxshi tushunamiz. Ul go'zal yurtda yashovchi aziz aka-ukalar, opa-singillar g'urbatda muhojir bo'lib yurgan bizlarning hozirgi holatimizdan xulosa chiqarsinlar. Har bir nobakor insonlarga quloq solmasinlar. Mamlakatni notinch qildirgan kishilardan o'zlarini uzoq saqlasinlar. O'zlarini biz kabi ovora, sarson qilmasinlar. Vatanning qadriga etsinlar. Vatansiz inson misoli qanotsiz qushga o'xshaydi...»

Vatanni sevish, uning qadriga etish uchun albatta, musofir bo'lish kerak ekan-
da, degan xulosaga kelmaslik kerak. Bu borada hazrat Alisher Navoiy shunday
deydilar:

*Vatan tarkini bir nafas o'ylama,
Yana ganji g'urbat havas aylama.*

Yoki axloqiy poklik, hojatbarorlik g'oyalarini targ'ib etib, ilmu ma'rifat
rivojiga munosib hissa qo'shgan va shu yo'lda Vatan taraqqiyoti uchun xizmat
qilgan Shayx Najmiddin Kubroning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashib, yurt
ozodligi yo'lida qurbon bo'lgani ham yuqoridagi fikrimizning yorqin ifodasidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin
bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go'zal
yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga ato etilgan. Shu ulug' tuyg'u har birimizning
dilimizga jo bo'lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishi lozim».

Bugungi kunda «O'z uyingni o'zing asra!», degan so'zlarni tez-tez eshitamiz.
Yurtimizdagi tinchlik, barqarorlikni ko'rolmaydigan, turli g'araz niyatlarni
ko'zlab, o'zga mamlakatlardagi diniy qarashlar niqobida harakat qilayotgan yovuz
kuchlar mavjud bo'lgan bir paytda ogoh va sergak bo'lishga chaqiruvchi bu
so'zlarda ham har birimizning Vatan, Yurt taqdiriga daxldorligimiz,
davlatimizning buyuk kelajagiga bo'lgan xalqimizning mustahkam e'tiqodi o'z
ifodasini topgan.

Oilaning muqaddasligi, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning yoshlar
tarbiyasidagi o'rni ham buning yorqin isbotidir.

Oilani muqaddas bilish hammamizning burchimiz. Zero, oila muhiti qanchalik
musaffo bo'lsa, unda tarbiya topgan farzandlar ham shunchalik pok va beg'ubor
bo'ladilar. Farzandlar go'zal axloqli, odobli bo'lishlari uchun ular avvalo oilada
to'g'ri tarbiyalanishi kerak.

Farzandlarni yoshliklarida kattalarga nisbatan hurmat-ehtirom, kichiklarga
nisbatan izzat-ikrom ruhida tarbiyalash asl milliy qadriyatlarimizdan hisoblanadi.
Bunda aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga ega.

Aka-uka va opa-singillar o'zaro inoq bo'lishlari, qarindoshlik rishtalarini mustahkam bog'lashlari, musibatlariga hamdard bo'lib, shodliklariga sherik bo'lishlari zarur. Zero, yoshlida o'zaro mehr-shafqatli qilib tarbiyalangan bolalar, ulg'ayganlarida ham bir-biriga oqibatli bo'ladilar.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ota-onani hurmatlashni, ularga ehtirom, mehr ko'rsatishni qayta-qayta uqtirganlar. Roviylar bu haqda Rasullullohdan juda ko'p hadislar rivoyat qilishgan. «Jannat onalar oyog'i ostidadir» hadisida ana shu holatlar o'z ifodasini topgan.

Odatda, qarisi bor xonadonni fayzli oila, uyida qari onasi va otasi bor kishini eng badavlat kishi, deyishadi. Xalqimizning «qarisi bor uyning – parisi bor», degan hikmatli so'zlari ham o'zining qisqa va yorqin ifodasini topgan deyish mumkin.

Ayni paytda, otaga nisbatan hurmat-e'tibor ham yuksak fazilat sanaladi. Islom dini otaga itoat qilmoq - Allohga itoat qilmoqlik, otani norozi qilish Allohni norozi qilish bilan barobar hisoblaydi. Imom al-Buxoriy o'zlarining Payg'ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadis sharifida: «Ota-onalarining keksalik vaqtida har ikkisi yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qila olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin» deganlarini ta'kidlaganlar.

Yana Abdulloh ibn Amr ibn Os (r.a.) ning rivoyatlariga ko'ra janobi Rasullulloh: «Odam qiladigan gunohi azimlardan biri – ota-onasini haqorat qilmoqlikdir!» dedilar.

Farqad us-Sanjiy aytdilar: «Ba'zi kitoblarda o'qidimki, bolaning ota-ona huzurida iznsiz gapirmoqligi, oldilarida yurmoqligi maqbul emasdir».

Islom dini qariyalarni hurmat qilishga, ularning izzat-ikromini o'rniga qo'yishga buyuradi. Alloh taolo qur'oni Karimda keksalik yoshiga etgan ota-onalarimizga qanday muomalada bo'lishimiz haqida shunday marhamat qiladi: «Rabbingiz, Uning o'zigagina ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey, inson) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga etsalar, ularga «uf!...» dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt. Ular (ota-ona) uchun mehribonlik xorlik qanotini past tut, hokisor bo'l,

Parvardigorim, meni (ular) go'daklik chog'imdan tarbiyalab o'stirganlaridek, Sen ham ularga rahm-shafqat qil» deb ayt!»

Payg'ambar (a.s.) huzurlariga bir sahoba kelib so'rabdilar: «Ey Rasululloh, mening kasalmand onam bor, uni o'zim ovqatlantiraman, suv ichiraman, tahorat qildirib qo'yaman, orqamda opichlab yuraman. Shu ishim bilan onamning menga qilgan xizmatlari haqqini to'la ado etibmanmi?» «Yo'q, yuzdan birini ado etibsan, xolos. Ammo yaxshi ish qilibsani. Alloh o'zi shu oz ishingga ko'p savoblar beradi», debdilar Rasululloh (s.a.v.).

Yuqorida keltirilgan oyatlar, hadislar va roviylar rivoyatlari ota-onalarning hayotlik vaqtlarida roziliklarini olib, hurmat-e'tiborlarini o'rniga qo'yishlik va hayotdan ko'z yumganidan so'ng faqat yaxshi so'zlab bilan eslashlikka da'vat qiladi.

Aytilgan o'g'itlarni aziz farzandlar qalblariga jo qilsalar va muhtaram ota-onalarini ardoqlashlari zarurligini qanchalik chuqur anglasalar hamda o'z hayotiy qoidalariga aylantirsalar, ular ham yoshlari ulg'ayganda izzat-ikromda azizu mukarram bo'ladilar.

Uzluksiz ta'lim mazmuni va tarbiya tizimi, xususan, «O'qish» darslari orqali o'quvchi-yoshlarda Vatanga, xalqiga mehr-muhabbat, milliy g'urur, diniy bag'rikenglik, tinchliksevarlik, millatlararo muloqot madaniyati, insonparvarlik, mustaqil va teran fikrlilik, fidoiylik, yuksak mas'uliyat va burchni his etish, qalbi poklik, mustahkam irodalilik, g'oyaviy pishiqlik kabi komil inson uchun zarur bo'lgan fe'l-atvorlar milliy qadriyatlar, diniy-axloqiy o'g'itlar, ajdodlarimizning o'lmas merosi asosida shakllantirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharaflil vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko'tarishimiz kerak». Bu – kelajagimizning vorisi bo'lgan yosh avlod to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilayotgan Yurtboshimizning so'zlari. Darhaqiqat, bugun har tomonlama etuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim. Shu bois darsliklar yangilanmoqda, o'qituvchilarga yangi talablar asosida ishlash yo'llarini

o'rgatuvchi metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlanmoqda. Lekin bu yo'lda hali juda ko'p ishlar qilinishi zarur.

Boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi»da «Bobokalonimiz Alisher Navoiy», «Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari», «Alisher Navoiy haqida rivoyatlar», «Donolarning donosi», «Navoiy hikmatlari» kabi mavzular va Oybekning «Alisherning yoshligi» hikoyasi berilgan. Garchi ular qisqa bo'lsada, Alisher Navoiyning hayoti, uning bizga qoldirgan katta merosi, qilgan ezgu ishlari, insonparvarligi haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil qilishi mumkin va bu yosh avlod qalbida Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shunday ekan, bu mavzuni yanada ta'sirliroq chiqishi, o'quvchi Navoiy haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishi uchun dars mashg'ulotlarida shoirning suratidan, asarlaridan foydalansak, hikmatli so'zlari yozuvi ko'rgazmasini tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga buyuk bobomizning tarjimai holi haqida gapirar ekanmiz, uning bolalik chog'laridayoq aqlli, odobli-zehnli bo'lganligini, ilm olishga juda chanqoq ekanligini chuqur tushuntirishimiz lozim. Toki bola ongida ana shu fazilatlarga ega bo'lishga harakat qilish fikri uyg'onsin. Buning uchun Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlardan o'rinli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, buyuk bobomizning xalqparvarligi, muhtojlarga yordam berishi, podshohlarni to'g'rilikka, haqgo'ylikka chorlovchi ezgu ishlari haqida o'quvchilarga kengroq ma'lumot berish kerak. Misol uchun:

Eyki, qaviy ayladi davlat qulung,

Zulm sori tushti va lekin yo'lung.

Bu sartlar orqali Navoiy o'z davrida xalqqa zulm o'tkazgan, ko'pgina nohaqliklarga yo'l qo'ygan, faqat boylik orttirish maqsadida xalq elkasiga ko'plab o'lpon soluvchi podshohlarga murojaat qilgan. Ya'ni «Ey podshoh, baxt-davlat qushi boshingga qo'nib, sen el-yurti so'raydigan bo'lding. Lekin, sen bunday el-yurti obod qilish, adolat uchun kurashmoq emas, o'z manfaatlarini o'ylab, odamlarga zulm qilish yo'lidan borayapsan». Yoki, agar kishi yaxshi inson

bo'laman, o'zimdanda yaxshi nom qoldiraman, desa xalqni o'ylashi, uning dardi bilan yashashi, mushkulini oson qilishi zurrur, deya uqtiradi Navoiy. Uning bu fikri:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami,

deb bitgan so'zlarida ko'rinadi.

Bir rivoyatda shunday hikoya qilinadi.

Bir o'tinchi chol bo'lgan ekan. U har kuni nabirasi bilan tog'dan o'tin terib kelarkan va shu o'tinlarni sotib tirikchilik qilarkan. Bir kuni u qattiq betob bo'lib qolibdi. Uning tabibga borishga bir miri ham yo'q ekan. Oradan kunlar o'tibdi. Uyda ham egulik hech vaqo qolmabdi. Bobosiga rahmi kelgan bola boyning huzuriga boribdi va undan o'n tanga qarz so'rabdi. Boy o'n tanga beribdi va ma'lum bir kunda qaytarib berasan, debdi. Bola xursand bo'lib, o'n tangani bobosiga olib borib beribdi. Chol tuzalib ketibdi, ammo qarzini o'z vaqtida uzolmabdi. Bundan jahli chiqqan boy chol va uning nabirasini qozining oldiga sudray boshlabdi. Bu holatning ustiga Navoiy kelib qolibdi. Ul zotni ko'rgan boy arz qila boshlabdi. Shunda vaziyatni anglagan shoir cholga yigirma tanga beribdi. «O'n tangani qarzingizga bering, o'n tangani esa nabirangiz bilan o'zingizga ishlatning», - debdi. Ammo chol tangani olmabdi. Shunda boy jig'ibiyron bo'lib: «Shunday ulug' zot muruvvat qilsayu olmasa» - debdi. Shoir «Yo'q, bu kambag'al qariya bizdan-da ulug'roq zot, u bizga mehnatsiz olingan aqcha yuq bo'lmasligini, halollikni o'rgatmoqda», - debdi.

Demak, Navoiy tabiatidagi insonparvarlik tuyg'usini, Vatanga muhabbat hissini u haqda yaratilgan rivoyatlar orqali, shoir o'zi yozib qoldirgan she'rlaridan foydalanib, o'quvchiga etkazish lozim.

Alisher Navoiy «Xamsa» asarida Farrux, Iskandar, Shopur, Dilorom kabi o'nlab adolat, ma'rifat, yaxshilik, insoniylik, baxt-saodat, do'stlik, birodarlik, go'zallik uchun kurashuvchi, zulm va adolatsizlikning, jaholatning hamma ko'rinishlariga qarshi jang qilib, o'z hayotini shu olijanob maqsadlar tantanasiga

bag'ishlab, mard va jasur haqqoniy va oqko'ngil, xalqparvar va vatanparvar kishilarning yorqin obrazlarini yaratdi.

Farhod haqida shoir shunday deydi:

*Birovkim zori yig'lab, yig'lab ul zor,
Toshib ko'ngil el ozoridan ozor.
Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok,
Yoqo chokin ko'rub, ko'ksin qilib chok.*

Farhod faoliyatidagi barcha xususiyatlar uning ana shu elparvarligi, insonparvarligi bilan bog'lanadi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul abror»da Navoiy kishilar munosabati va muomala mezonini, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar haqida qimmatli fikr-mulohazalarini bayon etadi. Dostonda odob bilan, har bir kishining holu ahvoriga yarasha muomala qilish, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat masalasiga keng o'rin berilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun qo'yadi.

«Farhod va Shirin» dostonida Farhodning insonparvarligi, uning irodasi, Shirin uchun Armanistonning tog'lik-toshlik erida kanal qazish jarayonida namoyon bo'lishi ifodalanadi.

Farhod bu o'rinlarda o'zining tinch mehnati bilan bog'liq chinakam qahramonlik ko'rsatadi. Butun xalq bir necha yilda ham bajara olmaydigan ishlarni bir necha kunda, bir o'zi bajaradi va shu yo'l bilan Shirinning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Farhod go'zal Shirinni zo'rlik bilan o'z changaliga kiritmoqchi bo'lgan Eron shohi Xisravga qarshi, sevgilisi yurtini himoya qilib, mardlarcha kurash olib boradi. Farhod va Shirin yovuzlikning, turli hiyla va nayranglarning, adolatsizlik va jaholatning qurboni bo'ladilar. Farhod o'zining shoh farzandi bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, inson ekanligi sababli mehnatga mehr qo'yadi, nochor kishilarga yordam berishni o'zining burchi deb biladi.

Navoiy «Layli va Majnun» dostonida odamzotning eng kechirilmas xatosi – inson dardini arziyas ganj (oltin)dan past deb hisoblashida kishi o'zini o'zi halokatga duchor qilishida deb biladi.

Demak, bobomiz Layli va Majnun sarguzashtlarini hikoya qilish bilan bizga: «Ey, inson, bu o'tkinchi dunyoda sendan yaxshilik, yaxshi nom, mehr qoladi. Shuning uchun bir-birngga yaxshilik qil», - deb nasihat bermoqda.

«Xamsa»ning eng katta dostoni «Saddi Iskandariy» hisoblanadi. Bunda insonparvar shoirning er yuzida mehr-oqibat, adolat-ma'rifat tantana qilishi bilan bog'liq orzu va xayollari o'zining ifodasini topgan.

Shoir o'zining «Mahbub ul qulub» asarida ilm, hunar, odob, axloq, yurtsevarlik, mardlik, rostgo'ylik kabi fazilatlarni ulug'laydi. Yolg'onchilik, badnafslilik, qo'rqqoqlik, xiyonat kabi qusurlarni qoralaydi.

Achchiq tillik ham eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Navoiy shunday yozadi: «Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngulda bitmas jarohat barpo etadi, unga hech narsa malham bo'la olmaydi». Shuning uchun u kishilarni ochiq chehrali bo'lishga da'vat etadi. Navoiy butun hayoti davomida ilm-ma'rifatni targ'ib etdi. Uning «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», «Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur» kabi dono o'gitlari xalqimizning hikmatli so'zlariga aylanib qolgan.

Alisher Navoiy o'z faoliyatida har bir kishini o'ziga do'st deb biladi. Uning bizga qoldirgan boy merosi asrlar davomida insoniyatni mehr-oqibat manzillari tomon boshlab, insonparvarlik g'oyalarini yuqori cho'qqiga ko'tarib kelmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodimiz ham Navoiydek insonparvar ulug' zotning avlodlari ekanligini anglab o'sishi va u kabi bo'lishga intilishiga erishaylik.

Biz quyida Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi 16 o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Muqaddas Turdievaning «Boshlang'ich ta'lim» jurnalining 2005 yil №1sonida «Navoiyni o'rgating menga...» deb nomlangan IV sinflar uchun noan'anaviy dars ishlanmasini taqdim etamiz.

Darsning maqsadi:

O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil mutolaaga yo'naltirish. Buyuk bobomiz, she'riyat mulkining sultoni, Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida mukammal tushuncha berish.

Darsning uslubi: o'quvchilarda ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganishga muhabbat tuyg'usini uyg'otish, suhbat, sahna ko'rinishi.

Darsning jihozlari: Alisher Navoiy portreti, shoir asarlari aks ettirilgan rangli rasmlar, kitoblar namunasi, test savollari, kartochkalar, magnitofon.

Darsning borishi:

Tashkiliy bosqich.

O'qituvchi bolalar bilan salomlashadi. Bugungi sana, oy, kun haqida so'raydi. 2007 yil – «Ijtimoiy himoya yili»ning maqsad va mohiyati haqida qisqa va lo'nda tushuncha beradi.

O'qituvchi: - Bolalar, hozir yozuv taxtasi yoniga 3 ta o'quvchini taklif etamiz. Marhamat (topshiriq beradi).

1-o'quvchi yozuv taxtasiga «qish» faslini aks ettiruvchi rasm chizadi.

2-o'quvchi faslga oid 2-3 ta gapdan iborat matn tuzadi.

3-o'quvchiga o'tgan mavzuni qanday o'zlashtirganini bilish uchun savollar beriladi. (X.To'xtaboevning «Xatosini tuzatgan bola» hikoyasi asosida savol-javob o'tkaziladi).

1. qosimjonga qaerdan xat keldi?

2. U nima uchun «Devoriy gazeta»ga she'r yozib bermadi?

3. Davlatimiz ramzlarini sanab bering.

O'quvchilarning javoblariga mos ball qo'yib, rag'batlantiriladi. So'ngra 5 ta savoldan iborat test topshirig'i topshiriladi.

O'qituvchi: - O'quvchilar, endi test daftaringizni oching-da, javob yozishga tayyorlaning.

1) Ulug' mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?

A) Alisher Navoiy, Forobiy

B) Al Xrazmiy, Hakim Nazir

- V) Forobiy, Borot Boyqobilov.
- 2) O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi matnini kim yozgan?
- A) Z.Diyor
- B) A.Oripov
- V) M.Burxonov
- 3) Ruboiyga ta'rif berilgan qatorni toping.
- A) Maqol
- B) Topishmoq
- V) To'rt qatordan iborat, chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan she'r.
- 4) G'azal necha baytdan iborat bo'ladi?
- A) 3 baytdan 10-12 baytgacha
- B) 2 baytdan 8-10 baytgacha
- V) 4 baytdan 7-9-baytgacha
- 5) G'azal mulkining sultoni kim?
- A) A.Oripov
- B) Alisher Navoiy
- V) q.Muhammadiy.

Savol	1	2	3	4	5
Javob	a	b	v	a	b
Ball					

Savollar bo'yicha to'g'ri javob topgan o'quvchilar aniqlanib, ball qo'yib rag'batlantiriladi.

Topshiriqni bajargan o'quvchilarga ham savollar beriladi. Bajargan ishlari izohlab baholanadi.

- Bayrog'imiz qachon qabul qilingan?

- qish fasli haqida ashe'r aytib bering.

O'quvchilar diqqatini jalb qilish maqsadida «Zanjir» nomli xotirani charxlash o'yini tashkil etiladi. Uning sharti:

Ulug' mutafakkirlardan kimlarni bilasiz? (Savolga o'quvchilar ketma-ket javob berishga harakat qiladilar).

1-bola: - Alisher Navoiy.

2-bola: - Alisher Navoiy, Bobur.

3-bola: - Alisher Navoiy, Bobur, Ulug'bek...

O'yinda 5 ta o'quvchi qatnashadi. Shu orada o'qituvchi sinf taxtasiga yangi mavzuni yozadi.

Yangi mavzu: «Navoiyni o'rgating menga...»

O'qituvchi: - Ulug' bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy 1441 yilda Hirot shahrida tug'ilgan. Alisher yoshligidan odobli, o'tkir zehni, zukko, she'riyatga qiziquvchan bola bo'lgan va kattalar e'tiboriga tushgan.

(Musiqqa yangraydi. O'quvchilar shoirni sharaflab she'r o'qiydilar).

1-o'quvchi:

Hirot tuprog'ida voyaga etgan,
«qush tili» yo'llarin munavvar etgan,
Yillar to'zonidan sog'-omon o'tgan,
Navoiy bobomlar – buyuk odamlar.

2-o'quvchi:

- «Xamsa»si ko'ngilni shamdek yoritgan,
Ona tilimizni yoddan bor etgan,
Mag'ribu mashriqni iftixor etgan,
Alisher bobomlar – buyuk odamlar.

3-o'quvchi:

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh er osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro,

Jahongiri kam bo'lar rosti.

4-o'quvchi:

Besh asrki, nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir she'r.
Temur tig'i etmagan erni,
qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

(O'quvchilar shoirning ruboiy va hikmatli so'zlaridan parcha o'qiydilar).

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jonni fido ayla ano boshig'a.

Tun kuningda aylagali nurfosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

- Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi.

- Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

- Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

- Tilni bilish – dilni bilishga yo'l ochar.

(Sahna ko'rinishi. Alisher va Lutfiy uchrashuvi).

Alisher: - Assalomu alaykum, ustoz!

Lutfiy: - Vaalaykum assalom, borakallo, biz faqirni ko'rgani kelibsiz, ash'orlaringizdan tinglaylik.

Alisher: - Bajonudil, ustoz! (g'azal o'qiydi):

- Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

Lutfiy: «Borakallo, ofarin, agar imkon bo'lganda edi, umrim bo'yi yozgan barcha ash'orlarimni sizning shu ikki qator she'ringizga alishgan bo'lur edim».

(O'quvchilar rag'batlantiriladi).

O'qituvchi: - O'quvchilar, barcha shoir va yozuvchilar o'zlariga taxallus tanlaydilar. Bobomiz o'zlariga nima uchun Navoiy taxallusini qo'yganligini quyidagi sahna ko'rinishidan bilib olamiz.

(Sahna ko'rinishi).

Alisher bog'da o'tirib she'r yozadi va uni o'qiydi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shifiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Alisher yoqimli ovoqidagi ohang gul shohida qo'nib turgan bulbulga yoqib qolibdi.

Bulbul: - Ey, navqiron shoir, ovozing bulbulning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Ismingni bilsam bo'ladimi?

Alisher: - Ha. Mening ismim Alisher.

Bulbul: - Bildim, bildim, siz yosh shoirsiz. Endi o'zingizga munosib taxallus qo'ying.

O'qituvchi: - Alisherga boyagi bulbulning «navo» degan so'zi yoqib qolibdi. Shundan so'ng u o'z she'rlariga «Navoiy» deya taxallus qo'yadigan bo'libdi.

O'quvchilar, endi lug'at daftaringizni oling-da, yangi so'zlarni yozing.

Taxallus- ikkinchi nom.

Ash'or – asar

Yangi mavzu bayoni mustahkamlanadi.

O'qituvchi: - Alisher Navoiy qachon, qaerda tug'ilgan?

- Bobomiz qaysi tilni mukammal bilganlar?

- Ulug' shoir asarlaridan qaysilari sizga ma'lum?

Dars yakunida barcha faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirilib, kundaliklariga baho qo'yiladi.

Xulosa va uyga vazifa:

Mavzuni o'qib, erkin mavzuda insho yozish.

II bob. Buyuk mutafakkirlarimizning ijodini boshlang'ich

sinf o'quvchilariga o'rgatishga oid tajriba-sinov ishlari natijalari

2.1. Dars jarayonida buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatish usullari

Kichik maktab davriga 7—12 yoshdagi boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) o'quvchilari kiradi. Bola maktab uchun bog'chada yoki oilada tarbiyalanmog'i lozim. Shunda u bilim asoslarini o'rganishga biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ruhshunoslarning kuzatishicha, bolaning ruhiyati bilim olishga etarli darajada to'lishib, idrokining o'tkirligi, sofliqi, aniqligi, yorqinligi, bilishga qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining musaffoligi, xotirasining mustahkamligi, fikrchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi, ayniqsa, bola diqqatining xususiyatlari didaktik o'yinlarda, muammolar jarayonida o'zgarar nutqini idrok qilish va tushunishda, hikoya tinglash va qayta hikoya qilishda ko'rinadi. Bola maktab davrigacha kattalarga taqlidan u yoki bu axborotni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi

bilan zarur ma'lumotlar to'plashga intiladi, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bola xulq-atvoridagi bu o'zgarish va faollik uning xotirasi muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi.

1-sinf o'quvchisi ko'proq bilim faoliyatini yaqqol obrazli xotiraga tayangan holda tashkil etadi. Nutqi ham izchil, ifodali, grammatik qoidalarga emas, balki miqdor va ko'lamiga ko'ra o'zgaralar bilan fikr almashish uchun etarli darajada shakllangan bo'ladi. Shu bilan birgalikda, bolaning maktab ta'limiga ruhiy tayyorlanishining ichki (botiniy) jihati ham mavjuddir. Unda shu davrga kelib, bilim olish, o'qish-o'rganish xususida to'g'ri tasavvur yuzaga keladi. Maktab intizomiga itoat qilishga, murabbiylar ko'rsatmasini bajarishga moyil bo'ladi. Lekin bolalardagi qobiliyat, iqtidor bir xil emasligidan, ular o'rtasida muhim farqlar vujudga keladi. Binobarin, ba'zi bola maktabga zo'r ishtiyoq bilan intilsa, ba'zisi maktabdan qat'iy voz kechishgacha borib etadi. Muhimi, maktab ta'limida o'quvchi o'qishga salbiy munosabat uyg'otmasligi uchun kurashishi zarur. Bu ishda eng maqbul yo'l, bolalardagi bilim saviyasining o'ziga xosligini inobatga olib, individual yondashishdir. Yangi pedagogik texnologiyaning talablaridan biri ham—xuddi shu.

Pedagogik texnologiya (PT) atamasi inglizcha «an educational technology» nomli so'z birikmasining mazmuniga muvofiq bo'lib, ta'lim texnologiyasi, degan ma'noni bildiradi. Bu ibora amerikalik olim B.Skinner tomonidan 50- yillarda birinchi marta «o'qitish texnologiyasi» deb qo'llangan. Bizda esa 90- yillarning boshida bu termin qo'llana boshlandi. Texnologiya so'zining 300 dan ortiq ta'rifi berilgan bo'lib, keng iste'moldagi ta'rifi quyidagicha: «Texnologiya—bu o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o'zida jamlagan va yakuniy natijasini ko'rsatadigan pedagogik faoliyatdir». Shu ilg'or murabbiylik faoliyati negiziga qurilgan texnologiya talabiga muvofiq o'qituvchi ta'lim bosqichida har bir bolaga individual yondashishi hamda ta'limni Insonparvarlashtirish va Demokratlashtirish talablariga o'quvchida rag'bat uyg'otishi asosiy vazifa sanaladi. Individual yondashuvda ta'limning bosh figurasi o'qituvchi hisoblansa-da, ta'lim olishga

ixtiyoriy harakat o'quvchi tomonidan bajarilishi lozim. Natijada ta'lim erkinligi shakllanadi. Bunda:

1. O'rgatuvchi va o'rganuvchi orasida ijobiy ma'nodagi masofa yo'qola boradi.
2. O'rganuvchi bilimni o'z shaxsi uchun zarurat ekanligini anglay boshlaydi.
3. O'rganuvchida ta'limdoshlaridan orqada qolmaslik g'ururi paydo bo'ladi.
4. Erkin fikrlash uchun to'siq sezilmaydi va ijodkorlik tuyg'usi qalbida nish uradi.
5. O'rganuvchida o'zlikni anglash tushunchasi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanish tushunchasi bilan uyg'unlasha boradi.

Biz quyida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida dars ishlanmasini ko'rib chiqamiz.

«**Hikoyat**» (Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidan).

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarda ozodlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash.

2. Hikoyat orqali o'z yurtiga bo'lgan mehrni oshirish.

3. Bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi: umumlashtiruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rsatmali.

Dars jihozlari: mavzuga oid rasmlar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan Erkin Vohidovning «O'lka» she'rini yoddan so'rab baholash. O'tilgan mavzularni savol-javob orqali mustahkamlash:

— Vatan qaerdan boshlanar ekan?

— Tug'ilib o'sgan erimizni nima uchun ardoqlaymiz? (Bu savol orqali o'quvchilar orasida bahs-munozara uyushtiriladi.)

II. Yangi mavzu — Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidan olingan «Hikoyat»ni o'tilgan mavzuga bog'lagan holda, hikoyat mazmuni asosida ishlangan rasmlar yordamida gapirib berish va hikoyatni o'quvchilarga navbatma-

navbat o'qitish, tushunilishi qiyin so'zlarni ojratib, ma'nosini tushuntirish va lug'at daftarlariga yozdirish:

<p>масофа — йыл фурсат — вақт вайрона — бузилиб кетган хуррамлик — хурсандлик</p>

III. Hikoyat mazmunini savol-javob yordamida mustahkamlash:

- Hikoyatdagi kabutar qaerda yashardi?
- Kabutar qafasdan qutulib, qaysi tomonga uchdi?
- Kishilar nima qilmoqchi bo'ldilar?
- Hikoyat qanday yakunlangan?

IV. O'quvchilarni baholab, baholarini e'lon qilish.

V. Matnni o'qib, kabutar rasmini chizib kelishni uyga vazifa qilib topshirish.

2-dars ishlanmasi.

Mavzu: Navoiy hikmatlari.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni bilim olishga intiluvchan, to'g'riso'z, bir-biriga mehr-oqibatli, inoq, ahil, do'st qilib tarbiyalash.

2. Navoiy hikmatlarining mohiyatini yoritish, o'quvchilarni she'r bilan tanishtirish.

3. Ifodali o'qish, yod olish malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko'rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma didaktik topshiriqlar, magnitofon.

I. Darsni tashkil qilish. Uyga berilgan topshiriqni so'rab baholash va o'tilgan mavzular yuzasidan didaktik tarqatma topshiriqlar berib, javoblar olish:

1 - kartochka. Alisher qachondan she'r yoza boshlaganligi haqida gapiring.

2- kartochka. Alisher bilan bulbulning suhbatini kitobdan topib o'qing.

3- kartochka. Alisher bilan Husaynning bolalari haqida gapiring.

4- kartochka. Shoir va shoh o'rtasida qanday o'xshash jihatlar bor?

II. O'quvchilarga Navoiy hikmatlarini magnitofon orqali eshittirish va mohiyatini yoritish. So'ng do'stlik haqida qisqacha suhbatlashib, yangi mavzu — Ibrohim Donishning «Inoqlikda gap katta» she'rini o'quvchilarga o'qib berish mazmunini rasmlar yordamida birgalikda tahlil qilish, lug'at bilan ishlash.

III. Savol-javob yordamida she'r mazmunini mustahkamlash:

IV. O'quvchilarni baholab, bahosini e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yodlab, Navoiy hikmatlarini o'zlari yasagan kitobchaga yozib qo'yishni topshirib, darsni yakunlash.

Buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari keyingi 2.2. paragrafda o'z ifodasini topgan.

2.2. Buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarida asarlarni o'rgatish bir necha bosqichlarda amalga oshirildi.

Dastlabki bosqich - bu ularga keng ko'lamli tarzda tashkil etilgan asarlar haqidagi bilimlar targ'ib qilindi. Bunda «O'qish» darslari asosida o'quvchilarga etarli darajadagi bilimlarni berish bajarildi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning bilimlarni egallash, yozuvchi va shoirlarning asarlaridagi insoniylik, odamiylik, mehr - oqibat kabi fazilatlar mohiyatini tushunish, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida, Davlatimiz Konstitutsiyasi va ramzlarida asarlarni o'rgatish, ularning ongiga etkazishga ahamiyat berildi.

Bunda o'quvchilarning ko'pchilik qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini hurmat qilish o'zlarining fuqarolik burchi ekanligini bildirish bilan birga, ularda ifodalangan mehnatsevarlik, insoniylik haqidagi bilimlar borasida o'z fikrlarini bayon etdilar. Ba'zibir o'quvchilar bu sohada past darajada bilimga ega ekanliklarini bildirganlar. Mazkur

holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga bo'lgan intilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning deyarli barchasi asarlarning mohiyatini chuqur anglamasdilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar faoliyatida olijanob fazilatlarni shakllantirish alohida maqsad qilib olinmagan. Biz ana shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun boshlang'ich ta'lim maktabi o'quvchilarida insoniylikni shakllantirishda quyidagilar asosiy vazifalar qilib belgiladik:

1. O'quvchilarning bilimlarini amaliyotga tadbqiq etish asosida ularda o'qish borasidagi dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilish, insoniylik, faollikni qaror toptirish;
2. O'quvchilarda mehnatsevarlikni, oliyjanoblikni shakllantirishda muhim vosita bo'lgan dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni quyidagi shakl va metodlarda amalga oshirish:

a) O'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi tarbiya metodlari - hikoya qilish, tushuntirish, savol-javobni tashkil etish, mehnatsevarlik haqida suhbat, namuna ko'rsatish, bahs, munozara, uchrashuv, olimpidalar o'tkazish, matbuot materiallari, o'quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash va boshqalar;

b) Ezgu fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashuvchi metodlar - rolli hamda ishonchli o'yinlarni yo'lga qo'yish, devoriy gazeta va mehnatsevarlik jurnallarini tayyorlash.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarida asarlarni tahlil qilishni shakllantirishga yo'naltirilgan dars va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi vositalarga tayanib ish ko'rildi:

O'quvchilarning shaxsiy yondoshuvi, jamoatchilik fikri, namuna ko'rsatish, ko'rgazmali qurollar namoyishi orqali, mehnatsevarlik munosabatlar jarayonini tashkil etish;

Tajriba - sinov jarayonida dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni, asarlarni tahlil qilishni shakllantirish metodi va tarbiya birligi, mehnatsevarlik mazmunidagi tadbirlarning yagona maqsadga yo'naltirilganligi kabi tamoyillar asosida tashkil etildi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida, o'quvchilar tomonidan asarlarni tahlil qilishni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchilar konkret fanni o'qitish jarayonida aynan shu bosqichlarning bog'lanish nuqtasini topishi muhim metodologik ahamiyatga ega. Zero, o'quvchilarning turli fanlarda asarlarni tahlil qilishni o'zlashtirish imkoniyatlari va faolliklari turlicha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi tomonidan, muayyan predmetning tahlil bilan bog'liq yoritishi, shartli ravishda, quyidagi bosqichlarda izchil amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich—o'quvchilar ongida tahlilni shakllantirish va rivojlantirish maqsadi hamda vazifalari belgilandi;

Ikkinchi bosqichda—muayyan asar doirasida tahlilni izohlash, ifodalash usullari va vositalarini tanlandi;

Uchinchi bosqichda—o'quvchilarning tasavvurlarini, nazariy bilimlarini va ularni amalga oshirish ko'nikmalarini mustahkamlandi;

To'rtinchi bosqichda—o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar darajasini nazorat qilish va baholashdan iborat bo'ldi.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'rtasidagi izchil bog'lanish, o'quvchi ongida asar haqida yaxlit, to'liq va aniq tasavvurlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ldi.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilar tomonidan tahlilni shakllantirish tushunchalarining o'zlashtirilish darajasi ham aniqlandi. Ularga quyidagi savollar taqdim etildi:

1. Siz uchun «Asar tahlili» tushunchasi nimani anglatadi?
2. «Tahlil» deganda nimani tushunasiz?
3. Kaysi yozuvchi yoki shoirning asarida insoniylik masalasi keng yoritilgan?
4. Siz odamiylik deganda nimani tushunasiz.?
5. Siz uchun «Inson», «mehnatsevarlik», tushunchalari nimani anglatadi?
6. «Mehnatsevarlik, do'stlik» tushunchalarini siz qanday sharhlaysiz?

Shuni aytish kerakki, kichik yoshdagi o'quvchilarda asar tahlilini shakllantirishda dars mashg'ulotlari va o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash mahorati muhim ahamiyatga ega. Har bir darsning maqsadi o'quvchilarning ongi, his - tuyg'usi va xulq - atvoriga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida suhbat uchun tuziladigan savollar quyidagi talablarga to'la javob berishi zarur:

1. Savollar o'qituvchi tomonidan puxta o'ylab tuzilishi, bolalarni o'ylashga, atroflicha fikr - mulohaza yuritishga majbur qilishi;
2. Savollar o'quvchilar saviyasiga mos va tushunarli bo'lishi, son jihatida ko'p bo'lmasligi;
3. Savollarning ixcham mazmunli, sifatli bo'lishiga e'tibor berish, savollar darsning umumiy maqsadini ochishga qaratilishi;
4. Savollar o'quvchilarning mehnatsevarlikni shakllan-tirishga qaratilishi;
5. Savollar o'quvchilarning his - tuyg'ulariga ta'sir etishi va ularning aqliy hissiyotini tarbiyalashga xizmat qilishi;
6. Savollar o'quvchilarning asar tahlili haqidagi tushuncha va bilim-larini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi va boshqalar.

Dars jarayonida o'qituvchilar Navoiy asarlaridan «Navoiyning yoshligidan lavha», «Donolarning donosi», «Alisher bilan bulbul», «Non hidi» hikoyasidan, H.H.Niyoziyning «Ota - ona hurmati», «To'g'riso'zlik haqida», «Kattalar mehnatini qadrlash haqida», o'zbek xalq ertaklaridan «Zumrad va qimmat», «Egri va to'g'ri», «Uch og'a ini botirlar», «Yoriltosh» kabi ertaklardan, o'zbek maqollaridan, hadislardan, buyuk yozuvchi va shoirlarning asarlaridan keng foydalanishlari zarur.

O'quvchilarni o'z ota - onasiga muhabbat ruhida o'stirib ularni to'g'ri so'z, mehnatsevar, jasur, qo'rqmas bo'lishida «qoch bolam, qush keldi», «Zag'izg'on», «Chitti gul», «qushim boshi», «Chori chambar», «Mushuk va sichqon», «Dim - dim», «Tapur - tupur qaldirg'och», Xolam mehmonga keldi» kabi o'yinlarni o'tkazish o'z samarasini beradi. O'quvchilarga darsdan tashqari jarayonda milliy

lapar va qo'shiqlarni o'rgatish, Navro'z, Hosil, Mehrijon bayramlarini muntazam o'tkazish, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning she'rlari bilan tanishtirish bolalarda insonparvarlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda tahlilni shakllantirish natijasida mehr - muhabbat, muruvvat va oqibat, saxiylik, saxovat diyonat, qanoat, himmat, adolat, sabr-toqat, mehribonlik, rostguylik fahm-farosatlilik,ziyraklik kabi ma'naviy xususiyatlar tarkib topadi. Tahlilni shakllantirish haqidagi bilim va dunyoqarashini rivojlantirib boradi. Biz ana shu talablardan kelib chiqib boshlang'ich ta'lim jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda tahlilni shakllantirish ko'nikma va malakalariga alohida ahamiyat berdik. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tahlilni shakllantirishni yuqori, o'rta, quyi darajalarga bo'ldik.

Yuqori daraja: odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, o'zining atrofidagi kishilar haqida g'amxo'rlik qiladi. U doimo do'stlikni ulug'lab, milliy an'analar va madaniyatga, boshqa millat kishilariga hurmatsizlarcha munosabatda bo'luvchilarning poyini qirqadi.

O'rta daraja: kishilarga g'amxo'rlik qiladi. Mehr - shafqat ishlarida ishtirok etadi. Boshqa millat kishilariga yordam berishga tayyor bo'lib, milliy an'analar va madaniyatga hurmat bilan qaraydi. Do'stlik ishlarida qatnashadi. Ammo ularning faoliyatida uzilishlar bo'lib turadi.

quyi daraja: o'qituvchi yoki jamoaning topshirig'iga ko'ra atrofdegilariga yordam beradi. Milliy an'analar va madaniyatga qiziqish bilan qaraydi, boshqa millat kishilariga undagandan keyin va nazorat ostida yordam beradi.

Tahlil jarayonini shakllantirishning alohida shakllari o'z ichiga quyidagilarni oladi. Tahlilni shakllantirishga oid adabiyotlarni o'qish-o'rganish; ma'naviy meros, yodgorliklari haqida ma'lumotga ega bo'lish, buyuk siymolarning hayoti va faoliyati bilan tanishish, o'quvchilarning oilaviy turmushi va sog'ligini kuzatish, hujjatli materiallar bilan ishlash, kichik yoshdagi o'quvchilar bilan «O'zbek xalqi - mehnatsevar xalq», «Salom berish ham qarz, ham farz», «Kamtarga kamol», «Poklik imondandir» kabi mavzularda suhbatlar o'tkazish, maktab atrofidagi

erlarga ekskurtsiya tashkil etish, savol - javob o'yinlari musobaqalar o'tkazishni tashkil etish, ommaviy ish shaklida «Alisher Navoiy mehnatsevar», «Sohibqiron Amir Temur» kabi ertaliklar o'tkazish kabilardir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Maktabda o'quvchilarga faqat umumiy ta'lim berish bilan cheklanilmaydi, unda ijodiy mehnatning zaruriy sharti bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi ham rivojlantirilib, har bir ishga ijodiy yondashish hissi shakllantiriladi va kamol toptiriladi.

O'quvchilarga ta'lim berishda asosiy maqsad ular ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashishni tarbiyalash, egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdan iboratdir. Bu jihatdan ham o'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchining darsga tayyorlanayotganida hal qilinishi zarur bo'lgan pedagogik masalalarni oldindan aniq belgilab olish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

O'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda boshlang'ich ta'lim mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga ega.

Mutafakkirlarimiz ijodini o'rganish asosida o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik tuyg'ulari muhim mezonlardan bo'lib hisoblanadi.

Bu borada ta'lim-tizimiga texnologik yondoshuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, boshlang'ich ta'limning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim-tarbiyaga yaxlit jarayon sifatida yondoshib, sinfdan tashqari o'qish ishlarini ta'lim jarayoni bilan uzviy aloqada tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

1. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida mutafakkirlar ijodini o'rgatish pedagogik muammo ekanligini 1 bobning 1 paragrafidan nazariy jihatdan asoslandi.

2. Mutafakkirlar ijodi yordamida o'quvchilarda ta'lim-tarbiyani shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini ishlab chiqildi.

3. Asarlar yordamida o'quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.

4. Asarlar yordamida o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishni ta'minlaydigan shakl va metodlar, vositalar tizimini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va tajribada tekshirib ko'rildi.

Olib borilgan tadqiqot ishimiz natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida mutafakkirlarimiz ijodini o'rganish yordamida o'quvchilarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- hayotni anglashga qiziqish hissini o'stirish, atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;

- Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

- asarni tahlil qilish, asardagi adabiy-axloqiy, falsafiy masalalarni aniqlash;

- haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar, bor imkoniyatini yurt tinchligi, xalq faravonligi yo'lida xizmat qilishdan ayamaydigan ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga doir metodik majmualar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish;

- o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy metod va usullarini izlab topish va amaliyotga joriy etish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

- boshlang'ich turkum fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy pedagogik yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borish va hokazo.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Didaktik asarlar yordamida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar uyushtirish;
- Boshlang'ich ta'lim jarayonida O'zbekiston mustaqilligi tufayli umuminsoniy, milliy ma'naviy qadriyatlardan keng foydalanish;
- O'quvchilarning ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan tashviqot-targ'ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;
- Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta'minlash hamda o'quvchi shaxsini kamol toptirish.

Yuqorida ta'kidlangan tavsiyalarning natijali bo'lishida boshlang'ich ta'lim maktablarining dasturlari mazmuniga aniq yo'nalishlar kiritilishi lozim. O'qituvchilar «O'qish kitobi» dasturidan o'quvchilarni tarbiyalashda keng foydalanishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.-T.: «O'zbekiston». 1997.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «Sharq». 1992.
3. Abdullaeva q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. -T.: O'qituvchi, 2004.
4. Abdullaeva q., Yusupova M., Mahmudova M., Mavlonova M. O'qish kitobi. (2-sinflar uchun darslik). -T.: «O'qituvchi». 2001.
5. Abdullaeva q. - Savod o'rgatish. -T.: «O'qituvchi». 1975.
6. Abdullaeva q., Nazarov K., Yo'ldoshev Sh. Savod o'rgatish metodikasi. -T.: «O'qituvchi». 1996.
7. Boboev T. She'r ilmi ta'limi. -T.: «Cho'lpon». 1996.
8. «Boshlang'ich ta'lim» jurnali. 2000-2007 yy.

9. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «O'zbekiston». 1998.
10. Inomxo'jaeva S., Zununova A. Ifodali o'qish asoslari. -T.: «O'zbekiston». 1978.
11. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -T.: «O'qituvchi». 1993.
12. qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T.: «O'qituvchi». 1985.
13. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: «Fan». 2003.
14. G'ulomov U.: Rasulov I., Rustamov X., Mirzaahmedov M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.: «O'qituvchi». 1975.
15. G'.Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish uslubiyati. -T.: «Ilm-ziyo». 2005.
16. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, mutafakkirlar, adiblar). (Mas'ul muharrir: M.M.Xayrullaev).-T.:Xalq merosi nashr. 1999.
17. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston. 2001.
18. Pedagogika. A.H.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. -T.: O'qituvchi. 1996.
19. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati. J.Xalq ta'limi .1999.№ 1.-97-102 b.
20. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. (Tuzuvchi-muharrirlar: A.Zunnunov va boshq.) – T.: Fan. 1996.
21. qurbonov Sh. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq. 1998.
22. qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi. Yosh iste'dodlarni izlaymiz. Metodik qo'llanma. Respublika iste'dod markazi. - T.: 1998.
23. Umarova M. O'qish kitobi. (3-sinflar uchun darslik). -T.: «O'qituvchi». 2001.
24. Yusupova Sh. O'qituvchi kitobi. -T.: «O'qituvchi». 2003.

25. Ma'qulova B. va boshqalar. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. -T.: «O'qituvchi». 1986.
26. Zunnunov A., «O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar». -T.: «O'zbekiston». 1997.
27. Inomova M., «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi». -T.: «O'zbekiston», 1997.
28. Iskandarov X. va boshqalar, «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi», I-II jildlar. -T.: «O'zbekiston», 1995 –1999.
29. Umarova M., 3-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi - T.: «Ijod dunyosi», 2004.
30. Homidiy H., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati.-T: «O'qituvchi». 1975.
- 31.w.w.w. ref.uz.
- 32.w.w.w. google
- 33.w.w.w. ziyonet uz.
- 34.w.w.w. literature. uz.

I L O V A L A R

1-ILOVA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari

1. O'qish darslarida o'quvchilarni badiiy adabiyot namoyondalarining hayoti va faoliyati bilan tanishtirish;
2. Asarlar yordamida o'quvchilarga badiiy adabiyoti haqida ma'lumot berish;
3. Badiiy adabiyot va undagi axloq-odob, mehnatsevarlik masalalarini o'quvchilarga tushuntirishni amalga oshirish. Badiiy adabiyoti namunalaridan ifodali o'qish jarayonida o'quvchilar diqqatini shoir va yozuvchilarning inson, mehnatsevarlikga bo'lgan munosabatini ko'rsatish va insonni kamolotga etkazishdagi tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish;
4. Badiiy adabiyot bo'yicha Vatan, vatanparvarlik, imon, mehnatsevarlik, do'stlik, vijdon kabi mavzularda o'quvchilarga mustaqil ijodiy ishlar topshirish;
5. Badiiy adabiyot ijodini ifodali o'qish, uning mazmuni va bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish;
6. «Alisher Navoiy – buyuk o'zbek mutafakkiri», «Ajdodlarimiz merosi – bitmas xazina» mavzularda adabiy kechalar, sinfdan tashqari tadbirlar, mushoiralar o'tkazish;
7. Ijodkorlarining bolalarga bo'lgan mehr-muhabbati haqida o'quvchilarga to'liq tushuncha berish.

2-ILOVA

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga buyuk mutafakkirlarimiz ijodini o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar

1. O'quvchi badiiy adabiyotni o'rganish jarayonida olgan bilimlarini o'zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj hamda qiziqishning paydo bo'lishga erishish.
2. O'quvchiga badiiy adabiyot mazmuni tarkibida vatanparvarlikka doir bilimlarni berish.
3. O'quvchilar tomonidan badiiy adabiyot borasidagi bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratish.
4. O'quvchilar tomonidan badiiy adabiyot borasidagi bilimlarining chuqur o'zlashtirilishiga erishish.
5. Boshlang'ich ta'lim hamda badiiy adabiyot borasidagi bilimlar asosida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini boyitish.

3-ILOVA

Badiiy adabiyotni o'rganishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilish

1. Badiiy adabiyotni o'rganishda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatilgan uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplariga amal qilish maqsadga muvofiq.

2. Ta'lim ustivorligi.
3. Ta'limni demokratlashuvi.
4. Ta'limni mehnatsevarlashuvi.
5. Ta'limni ijtimoylashuvi.
6. Ta'limni milliy yo'naltirilganligi.
7. Ta'lim va tarbiyani uzviy bog'liqligi.
8. Iqtidorli yoshlarni aniqlash.

4 - ILOVA

Boshlang'ich ta'lim jarayonida olib borilgan kuzatish ishlari va o'tkazish pedagogik tajribalarimizni xulosa qilib, shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinflar

o'qish darslarida kichik yoshdagi o'quvchilarda ta'lim-tarbiyani shakllantirishda quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Yozuvchilarning tarjimai holini o'rganishda ularning hayotidagi ibratli voqealar va o'rtoqlarcha o'zaro yordamlashish masalasiga oid savollar quyish yo'li bilan dars o'tish.

2. O'quvchilarga biror bir mavzudan ta'sirlangan misollarni topib kelishni uyga vazifa qilib berish.

3. «O'qish» darslarida mavzu o'rganilayotganda o'quvchilarni mavzudagi voqealarni aks ettiruvchi misollar topishga o'rgatib borish.

4. Mutafakkirlarimiz tarjimai holi va ijodini o'rganishda o'quvchilarni savollar tuzdirishga o'rgatish.

5. Dars jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashda ko'rgazmali qurollardan, texnik vositalardan foydalanish.

6. Dars jarayonida o'quvchilarda bilimlarni mustahkamlash maqsadida ularning oldindan yaxshilab tayyorlanib kelishiga erishish.

7. Darsda o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlardagi qahramonlarning obrazlarini va bu asarlardagi mavzuga doir tomonlarini ajratib olishga imkon beruvchi qisqa suhbatlar o'tkazish.

5-ILOVA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda buyuk mutafakkirlarimiz ijodi orqali ta'lim-tarbiya berishni shakllantirish tizimi





